XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI HOKIMINING

QARORI

220500, Urganch tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy, telefon: (62)35-21-649, faks: 35-21-991

2022 - yil 30 - sentabr 726-12-173-Q/22 Urganch tuman hokimligi

Urganch tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi
101-son qaroriga asosan Urganch tumani hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi:

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq

amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror tuman hokimligining “Urganch haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xo‘jaev zimmasiga yuklansin.

Urganch tuman hokimi **Ф.Шарипов**

Urganch tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
726-12-173-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Urgnach tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Narxi
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul